

Shoista Muratova
Samarkand State Medical University,
PhD, Associate Professor

Shoista Muratova,
Samarqand davlat Tibbiyot universiteti, p.f.d dotsenti

PSYCHOLOGY OF THE DEVELOPMENTAL CHARACTERISTICS OF HUMAN NEEDS

Abstract: This article analyzes the process of development of human needs, their types, and their impact on education, the economy, psychology, and the social environment. Based on Maslow's hierarchy of needs theory, the biological, social, and psychological levels of needs are examined. The paper also explores the variability of human needs in modern society and the importance of new types of needs — such as information, digital technologies, and personal development. Scientific analyses substantiate that human needs are a decisive factor in personal growth and societal progress.

Keywords: human needs, development, motivation theories, social needs, biopsychological demands, personal development, economic factors, cultural influences, self-actualization, needs in psychology, evolutionary psychology.

ПСИХОЛОГИЯ ОСОБЕННОСТЕЙ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ПОТРЕБНОСТЕЙ

Аннотация: В данной статье анализируется процесс развития человеческих потребностей, их виды, а также влияние на образование, экономику, психологию и социальную среду. На основе теории иерархии потребностей Маслоу рассматриваются биологические, социальные и психические уровни потребностей. Также проанализированы изменчивость человеческих потребностей в современном обществе, значение новых видов потребностей — информационных, цифровых технологий, личностного развития и других. На основании научных исследований обосновано, что потребности человека являются решающим фактором в развитии личности и прогрессе общества.

Ключевые слова: человеческие потребности, развитие, теории мотивации, социальные потребности, био-психологические запросы, личностное развитие, экономические факторы, культурные влияния, самореализация, потребности в психологии, эволюционная психология.

INSON EHTIYOJLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI PSIXOLOGIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson ehtiyojlarining rivojlanish jarayoni, uning turlari va ta'lim, iqtisodiyot, psixologiya hamda ijtimoiy muhitga ta'siri tahlil qilinadi. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi asosida ehtiyojlarning biologik, ijtimoiy va ruhiy bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda inson ehtiyojlarining o'zgaruvchanligi, yangi turdagi ehtiyojlar — axborot, raqamli texnologiyalar, shaxsiy rivojlanish kabilarning ahamiyati tahlil qilingan. Ilmiy tahlillar natijasida inson ehtiyojlari shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi omil ekani asoslab berilgan.

***Kalit so'zi:** ison ehtiyojlari, rivojlanish, motivatsiya nazariyalari, ijtimoiy ehtiyojlar, bio-psixologik talablar, shaxsiy rivojlanish, iqtisodiy omillar, madaniy ta'sirlar, haqiqiylashuv (samorealizatsiya), psixologiyada ehtiyoj, evolyutsion psixologiya.*

Kirish. Inson ehtiyojlari — shaxsning hayot faoliyatini ta'minlash va uni yanada takomillashtirishga qaratilgan ichki rag'bat va talablar majmuasidir. Insoniyat tarixi davomida ehtiyojlar shakli, mazmuni va darajasi muntazam ravishda o'zgarib borgan. Avval boshda asosiy biologik ehtiyojlar — ozuqa, suv, boshpanadan iborat bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va shaxsiy rivojlanishga doir ehtiyojlar yuzaga keldi. Bu jarayon insonning jamiyatda tutgan o'rnini, bilim darajasi va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq.

Inson ehtiyojlarining rivojlanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u nafaqat psixologik va ijtimoiy omillar bilan, balki iqtisodiy, madaniy hamda texnologiyaviy taraqqiyot bilan ham bog'liqdir. Zamonaviy jamiyatda yangicha ehtiyojlar — axborotga ega bo'lish, shaxsiy rivojlanish, o'zini anglash va ijodkorlik kabi masalalar birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu maqolada inson ehtiyojlarining tarixi-evolyutsion rivojlanishi, ularni turkumlashtirish nazariyalari, shuningdek, bu ehtiyojlarning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi — inson ehtiyojlarining o'zgaruvchan tabiati va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Muayyan muhitda yashovchi hayvonning u yoki bu tarzdagi xatti-harakati aniq ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo'ladi. Shu boisdan ehtiyoj hayvonni faollikka undash bilan cheklanib qolmasdan, balki faollikning turlari, shakli, harakatlantiruvchi kuchiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hayvonda ovqatlanish ehtiyojini tug'ilishi unda faollikni vujudga keltiradi, natijada so'lak bezlari ishlay boshlaydi, o'lja qidirish, uni poylash, tutish va iste'mol qilish bilan bog'liq holatlar majmuasi yuzaga keladi. Mazkur jarayonlar shartli reflekslar, faollikni keltirib chiqaruvchi yangi qo'zg'ovchilar va unga muvofiq bo'lgan yangi harakatlar bilan bog'lanish mumkin, biroq hayvonning xatti-harakatining tuzilishida hech qanday o'zgarish yuz bermaydi. Jahon fiziologlari va psixologlari tomonidan hayvonlarda shartli reflekslarni shakllantirishga oid tajriba materiallarining ko'rsatilishicha, vosita sifatida foydalanilgan qo'ng'iroq chalinishi hayvon uchun tashqi qo'zg'otuvchilar ichidan faqat ovqatlanishga bog'liq signal (xabar) vazifasini bajaradi, xolos.

O'rgatilgan hayvon tomonidan tepkini bosish jarayoni unga ovqatning berilishi bilan aloqador xatti-harakat tarzida amalga oshiriladi. Shuning uchun hayvon har qanday murakkab shartli reflekslar yordami bilan o'z xatti-harakatini amalga oshirgan bo'lishiga qaramay, ehtiyojlar bevosita uning psixikasini aks ettirish muayyan ob'ektga yo'naltirish, xulqini idora qilish funksiyasini bajaradi. Chunki hayvon a'zolarining biologik-tabiiy ehtiyojlari psixik aks ettirish mazmuni va sifatini, tashqi olam ta'siriga nisbatan javob sifatida paydo bo'luvchi xatti-harakatlarni muvofiqlashtirib turadi.

Insonning faoliyati, xulq-atvori, xatti-harakati hayvonlarnikidan tubdan farq qiladi, ularni tarkib toptirish mutlaqo boshqa asosga quriladi. Misol uchun bolaning ovqatlanishi, xatti-harakati, qoshiqdan foydalanish, maxsus ajratilgan joyda utirish, ovqat yeyish qurolini ishlata olish uning tabiiy ehtiyojlari tufayli yuzaga kelgan deb e'tirof etish haqiqatdan uzoq fikr, chunki uning negizida yotuvchi mexanizmlar siri tushuntirib berilmagan. O'z-o'zidan ma'lumki, tabiiy eshtiyojni qondirish uchun zarur shartsharoitlar yaratilishi shart emas, insonda uyquga ehtiyoj tug'ilsa, u holda hech qanday yumshoq o'ringa, divanga talab sezilmaydi, charchagan odam duch kelgan joyda o'z ehtiyojini qondiraveradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abraxam Maslou – “Motivation and Personality” (1954). Har bir yuqori bosqichga o'tish uchun pastki ehtiyojlar qondirilishi kerakligini aytgan. Kleyton Olderfer – “Existence, Relatedness, and Growth” (1969 - Maslou modelini qayta ko'rib chiqib, inson ehtiyojlarining parallel rivojlanishini ta'riflaydi. Devid MakKlelland – “The Achieving Society” (1961) - u insonning faoliyatida uch asosiy ehtiyojni ta'riflaydi: yutuq, bog'liqlik va hokimiyatga intilish. Karl Rodjers – “On Becoming a Person” (1961) - Shaxsiy rivojlanish va o'zini ro'yobga chiqarish ehtiyojiga e'tibor qaratgan.

O'zbek mualliflaridan: Mirzayev Q., Yuldashev A. – “Psixologiya” darsligida shaxs rivojlanishi va ehtiyojlarning psixik asoslari yoritilgan. Tojiboyev Q. – “Falsafa” asarida insonning ma'naviy ehtiyojlari va jamiyat bilan bog'liqligi falsafiy jihatdan talqin qilingan.

Tadqiqotning metodologik asosi.

1. Falsafiy yondashuvlar

Dialektik metod – inson ehtiyojlarining rivojlanishini qarama-qarshiliklar, inqirozlar va yangi sifatlarga o'tish orqali izohlaydi.

Antropologik yondashuv – insonning biologik va ma'naviy tabiatiga asoslanib, ehtiyojlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini tushuntiradi.

2. Ilmiy nazariy asoslar

A. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi – inson ehtiyojlari belgilangan iyerarxiya bo'yicha (fiziologik, xavfsizlik, ijtimoiy, hurmat, o'zini namoyon qilish) rivojlanadi.

K. Rodjers va E. Fromm kabi gumanistik psixologlarning qarashlari – inson ehtiyojlari shaxs kamolotga intilayotgan sari rivojlanishini ta'kidlaydi.

3. Ijtimoiy-tarixiy yondashuv

Inson ehtiyojlari jamiyatning madaniy va iqtisodiy darajasiga bog'liq ravishda shakllanadi va o'zgaradi. Masalan, sanoat davridagi ehtiyojlar bilan raqamli davr ehtiyojlari farqlidir.

4. Ta'limiy va tarbiyaviy metodlar

Inson ehtiyojlari ta'lim, oila, ommaviy axborot vositalari ta'sirida shakllanadi. Bularni o'rganishda pedagogik va psixologiya metodlar qo'llaniladi.

Metodlar:

Ta'liliy metod – mavjud nazariya va qarashlarni tahlil qilish.

Qiyosiy tahlil – turli davrlardagi ehtiyojlar rivojlanishini solishtirish.

Empirik usullar – so‘rov, kuzatuv va intervʼyular orqali ma'lumot yig'ish.

Modellashtirish – ehtiyojlar rivojlanish jarayonini nazariy modellarda ifodalash.

Madaniy xatti-harakatlar, odatlarning insonda vujudga kelishi ijtimoiy tarbiyaning ta'sirida tabiiy ehtiyojlarni qondirishning vositasi, sharti sifatida gavdalanib, qurollar, buyumlar ularning tarkibiy qismiga aylana boshlaydi. Bunday xatti-harakatlar shaklini keltirib chiqaruvchi asosiy manba tub ma'nodagi ehtiyoj emas, balki uni qondirishning jamiyat taraqqiyoti talab qilgan qoidalari, usullari, kamolot taqozo etuvchi madaniy ko'nikmalar hisoblanadi.

Jamiyatning taraqqiyot bosqichlariga binoan tabiiy ehtiyojlarni qondirishning yangidan-yangi, yanada takomillashgan vositalari insoniyat tomonidan yaratilaveriladi va bular ehtiyojlar tarkibi bilan qorishib ketadi. Madaniy va ma'naviy ehtiyojlar to'g'risida ham xuddi shu tarzda o'zgarishlar yuz beradi, shaxsning boshqa kishilar bilan muloqatga kirishish, bilimlarni o'zlashtirishda texnik vositalardan foydalanishi nutq va kiyinish madaniyatining o'sishi ularni qondirishga nisbatan talab darajasining ortishi mazkur ehtiyojlar rivojlanishini ta'minlaydi.

Psixologiyada ehtiyojlar rivojlanishining bir necha bosqichlari mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish zarur. Chunki ehtiyojlar inson ontogenezida paydo bo'lib, to uning umrining oxirigacha o'zgarib, takomillashib boradi. Kishilik jamiyatlarida ehtiyojlar bir-biridan ham mohiyat, ham shakl jihatidan tafovutga ega bo'lganday, yosh davrlariga qarab ular xuddi shunday mezonlar bo'yicha o'zaro farqlanadilar.

Bola faolligini rivojlantirishning dastlabki bosqichlaridayoq, biologik jihatdan ahamiyat kasb etuvchi buyumlar, jismlar ustuvorlik xususiyatiga ega bo'lmaydilar, aksincha ularning inson tomonidan foydalanish usullari ehtiyojlarning omillari tariqasida gavdalanadi. Binobarin, mazkur buyumlar, aslahalarning ijtimoiy tajribalarini egallashdagi ahamiyati, roli namoyon bo'lishning mexanizmlari sifatida maydonga keladi. Bolalarning xuddi shu yo'sinda egallaydigan xatti – harakatlarning yangi shakllari – bu jamiyat tomonidan ijtimoiy amaliyot vazifalariga munosib ravishda ishlab chiqilgan usullaridan iborat bo'lib, buyumlar bilan shaxsning munosabati tarzida yuzaga keladi, kishining kundalik faoliyati ichidan muhim joy engallaydi.

Stol atrofida o'tirish, qoshiq bilan ovqat yeyish, krovatda uxlash, televizo tomosha qilish, o'yinchoq o'ynash, kattalar bilan muomala qilish yuqoridagi fikr mohiyatini yaqqollashtirishga yordam beradi. Ehtiyojni qondirishning vositalaridan foydalanish qoidalari ijtimoiy muomala usullari, faoliyatni amalga oshirishning yo'l-yo'riqlari katta yoshdagi odamlar tomonidan yoshlarga o'rgatiladi. O'z ehtiyojlarini muayyan buyumlar vositasida qondirishga va ularni muayyan faoliyat turiga tadbiq etishning insoniy shakllarini egallashga o'rgatish maxsus mashqlar orqali amalga oshirilib, «Etuk shaxs bola» tarzida yuzaga keladi.

Demak, bola ehtiyoji qondirilayotgan insoniy shart-sharoitlar ta'siri ostida shaxsning xulq-atvori vositalar ahamiyati bilan emas, balki ularning ijtimoiy

qiymati bilan belgilanadi. Ehtiyojlarning qondirilish darajasi uning og‘ir yoki yengil ko‘chishi shaxsning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, shu boisdan ularni qondirish maqsadga muvofiq, oqilona mezonlarga suyanib amalga oshirilsa ijtimoiy ahamiyati yanada ortadi.

Insonda madaniy va ma'naviy ehtiyojlar turmush tajribasi ortishi, bilim saviyasi kengayishi, maxsus mashqlar egallanishi, ijtimoiy hayot qoidalariga uzluksiz ravishda rioya qilishi, narsa va hodisalarga munosabati o‘zgarishi tufayli rivojlana boradi. Odam tobora barkamol bo‘la borishi uning oldiga yangicha talablar qo‘yadi, ularni bajarish esa ehtiyojning yangi, nisbatan murakkab, mohiyat jihatdan teran xususiyat kasb etuvchi shakllarni vujudga keltiradi, ularning qondirilishi esa tuzilishga ega bo‘lgan vositalarni taqozo etadi.

Xulosa. Inson ehtiyojlari — shaxsning hayotiy faoliyati, ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlarining asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri hisoblanadi. Ularning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti, ilmiy-texnikaviy yutuqlar, ta'lim, madaniyat va axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Maqolada inson ehtiyojlarining bosqichma-bosqich shakllanishi, Maslou nazariyasi asosida ularning iyerarxik tizimi hamda zamonaviy sharoitdagi o‘zgarishlari tahlil qilindi.

Hozirgi kunda ehtiyojlar nafaqat fiziologik va xavfsizlik kabi asosiy omillar bilan cheklanib qolmoqda, balki o‘zini anglash, ijtimoiy ta'sir va shaxsiy rivojlanish kabi yuqori darajadagi ehtiyojlar ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa inson resurslarini samarali boshqarish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va shaxsni har tomonlama rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shu bois, inson ehtiyojlarining rivojlanishini chuqur o‘rganish — sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va boshqa ijtimoiy fanlar uchun dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bunday tadqiqotlar jamiyatda barqaror taraqqiyotni ta'minlash va inson kapitali salohiyatidan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Ma'lumotlilik aql – zakovat ko‘rsatkichining yuksalishi, iste'dod alomatlarining ro‘yobga chiqishi, faollikning ortishi, xatti-harakat tarkibida keraksiz bo‘g‘inlarning kamayish ehtiyoji takomillashgan shaklining namoyon bo‘lishini ta'minlaydi. Inson komfort sari intilar ekan, demakki unda yangi ehtiyojlar yuzaga keladi, ularning qondirilishi esa yangi bir sifat darajasiga ko‘tariladi. Madaniyatning yangi qirralari ochilishi, ma'naviyatni egallashga nisbatan xohish – istakning kuchayishi, fan va texnikaning taraqqiyoti, milatlararo munosabatlar ko‘lamining kengayishi rang-barang ehtiyoj turlari va shakllari rivojlanishiga muhim shart-sharoitlar yaratadi. Insonning barkamollik sari intilishdagi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish orzusi ehtiyojlar rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Psixologiya fanida ehtiyoj quyidagi tiplarga ajratiladi:

1. Individual – yakka shaxsga yo‘naltirilgan.
2. Guruhiy – real guruhlar moddiy va ma'naviy intilishi.
3. Jamoaviy – jipslashgan guruhlar talabi majmuasi.
4. Hududiy – etnik guruhning muayyan o‘ziga xos talablari qondirilishi
5. Etnik – ma'lum millat yoki xalqlarning safarbarligini ta'minlash.

6. Umumbashariy – yer yuzi xalqlarining umumiy talablarining majmuaviy aks etishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Andreeva G., Social Psychology. Moscow: M., 1998.
2. Psychology T.: A Field of Study, 1994.
3. Karimova V., The Foundations of Social Psychology. Tashkent: T., 1994.
4. G‘oziyev E.O‘QITUVCHI" NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT – 2008.
<http://www.ziyouz.com/>
5. Muratova, Sh. N. "Social aspects of preparing adolescent boys for family life," Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan, pp. 91–95, 19.00.00 No. 10.
6. Muratova Sh. N., "Scientific and theoretical basis of the problem of preparing children for family life and its state of education," Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan, pp. 82–86, 19.00.00 No. 10.
7. Muratova Sh. N. and Otan, "Place in foster care," Education, Science and Innovation, Scientific Newsletter, no. 5, pp. 82–86, 2022.
8. Muratova Sh. N., "Socio-psychological aspects of preparing boys for family life," SamDU Scientific News Release, ISSN: 2091–5446, no. 6 (124), pp. 100–105,
9. Muratova Sh. N., "The socio-psychological capabilities of premarital parents in preparing young people for family life," Scientific Journal of Psychology of BUH DU, ISSN: 2181–5291, no. 3, pp. 84–90, 2021.
10. Muratova Sh. N., "Analysis of theoretical approaches to the pedagogical and psychological education of boys in the family," NamDU Scientific News Release, ISN: 2181, no. 6, pp. 409–415, 2019.
11. Bordovskaya, N.V., & Rean, A.A. *Pedagogy: A Textbook for Universities*. – St. Petersburg: Piter Publishing, 2000. – 304 pages.
12. Kuzmina, N.V. *Methods of Research in Pedagogical Activity*. – Leningrad: Leningrad University Publishing, 1970.
13. Korotov, V.M. *Introduction to Pedagogy*. – Moscow: URAO Publishing, 2003. – 256 pages.
14. Mavlonova, R. et al. *Pedagogy: A Textbook for Students of the Faculty of Primary Education Methodology, Pedagogical Lyceums, and Colleges*. – Tashkent: O‘qituvchi, 2001. – 512 pages.
15. Rean, A.A. et al. *Psychology and Pedagogy: A Textbook for Universities*. – St. Petersburg: Piter, 2001. – 432 pages.
16. Stefanovskaya, T.A. *Pedagogy: Science and Art. A Course of Lectures. A Study Guide for Students, Teachers, and Postgraduates*. – Moscow: Sovreshenstvo Publishing, 2008. – 368 pages.